

Shahrimizda "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" "Biz — ular bilan faxrlanamiz!" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi.



Shahrimizda "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" "Biz — ular bilan faxrlanamiz!" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi.

Tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar el-yurtimiz hayotida go'zal an'anaga aylandi. O'zaro suhbat va muloqotlarda mamlakatimizda inson omiliga yuksak e'tibor berilayotgani, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamiyatimizning har bir a'zosiga g'amxo'rlik, mehr-oqibat ko'rsatilayotgani, inson qadr-qimmatini, uning orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishga


imkoniyat yaratib berish ustuvor vazifaga aylangani bot-bot ta'kidlandi. Yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida o'z dil so'zlarini, samimiy fikrlarini bildirdi. El-yurt ravnaqi yo'lida mamlakatimiz rahbariga yaqin ko'makchi, kamarbasta bo'lish lozimligi uch avlodga mansub yurtdoshlarimiz o'rtasida kechgan samimiy suhbatlar bosh mavzusiga aylandi. Bugun kun sovuq bo'lishiga qaramay erta tongda Surxondaryo viloyati Termiz shahar 11506-harbiy qismda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 92-qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" "Biz — ular bilan faxrlanamiz!" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi.

Tadbir davomida 80 yoshni qarshilagan nuroniy otaxonlarimiz yoshlarimiz bilan birgalikda xattoki sport musobaqalarida ham bellashishdi.

Keksalarning o'g'itlari yoshlarni chuqur bilim olishga, doim yaxshilik qilishga, yaxshi inson bo'lishga ilhomlantirdi. Tadbir san'atkorlarning katta konserti bilan davom etdi. Albatta, bu kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishiga, urush va mehnat faxriylarining hayot maktabi bilan yaqindan tanishishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadbirlarda yoshlarga xos kuch-g'ayrat, o'rta va keksa avlod vakillarining boy hayot maktabi birlashdi. Shu asnoda xulosalar qilinib, ishtirokchilar o'zlarining hayotiy tajribasi va kasbiy faoliyatida orttirgan tajribalari borasidagi qimmatli mulohazalari bilan o'rtoqlashishdi.


Tadbir davomida el-yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan uch avlod vakillaridan bir guruhiga Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan estalik sovg'alari topshirildi va tadbir so'ngida 11506-harbiy qismda bir piyola choy ustida suhbatlarini davom ettirishdi.























Image not found or type unknown

